

XVII ASRNING 1-YARMIDA BUXORO XONLIGINING SIYOSIY INQIROZI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Rajabov Alisher Shavkatovich

Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Urunov Shoxijahon Jamshidovich

Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7919887>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Buxoro xonligining iqtisodiy inqirozga yuz tutishi, uning xususiyatlari, sababi va oqibatlari haqida fikrlar boradi.

Kalit so'zlar: Buxoro, inqiroz, O'rta Osiyo, Samarqand, savdo, Nodirshoh, Balx. XVIII asr birinchi yarmida o'zaro nizolar va feodal g'alayonlari natijasida ro'y bergan xo'jalik vayronagarchiligi Movarounnahrning butun xo'jalik va madaniy hayotini barbod etdi, inqirozga olib keldi. XVIII asrning 20-yillari boshlari o'troq nohiyalarning ko'chmanchi qozoqlar va jung'orlar hujumi va talonchiligi tufayli ahvol yanada mushkullashdi.

Iqtisodiy inqirozning tashqi sabablaridan biri, chamasi, XVI asrda dengiz yo'llarining ochilib, XVII asrda qadimgi karvon yo'llari bo'ylab savdoning to'xtashi bo'lsa kerak. O'rta Osiyo xalqlari jahonning savdo va siyosiy markazlaridan uzilib qolib, Yevropada fan va texnika sohasida erishilgan eng yaxshi kashfiyotlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lishdi. Yuqorida bayon etilgan omillarning bari ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga mone'lik qildi va ichki bozorni kasod qildi. Shaharlar tanazzulga uchradi. Samarqanddek gavjum shahar huvillab, 1740 yilda deyarli aholi yashamadi, faqat qo'rg'ondagina qariyb 1000 ta oila bor edi.


XVII asrning 60-yillaridan Buxoro siyosiy kurashlar maydoniga aylanib boraverishi natijasida uning madaniy va iqtisodiy ahamiyati biroz pasaygandek bo'ldi. Xuddi shu davrda Xiva xonlari Abulg'ozil Bahodurxon va Anushaxonlarning Buxoro erlariga bostirib kirish holatlari kuzatiladi. Abdulazizxon garchi oliy taxtda bo'lsa-da, ammo Balx muammosi unga tinchlik bermasdi. Uning ukasi Subhonquli deyarli mustaqil faoliyat yuritardi. Ba'zi vaqtlarda diniy ulamolarning aralashuvi va hattoki Balxda Abdulaziz nomidan xutba o'qilgan bo'lishiga qaramasdan, 1681-yilgacha shahar amalda o'zining mustaqilligini saqlab qola oldi. O'sha davr tarixiy manbalaridan bo'lmish Xo'jamquli Balxiyning "Tarixi Qipchoqxon" asarida Subxonquli va Abdulaziz o'rtasidagi kurashlar uzoq davom etgan va bu uning halokatini yaqinlashtirganligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Abdulazizxon hukmronligining oxirida taxtni ukasi va valiahdi Subhonquliga topshirib, o'zi




Eron Safaviylari davlat hududi orqali hajga jo'nab ketishga qaror qiladi. 1681-yilda uni Eron shohi kutib olgan. O'sha davr manbalarida bu haqda ma'lumotlar berilgan. 1683- yilda Makka shahrida vafot etgandan so'ng o'sha joyda dafn etiladi. Ashtarxoniylar sulolasining vakillaridan Subhonqulixonning taxtga o'tirishi shundoq ham murakkab vaziyatni battar chigallashtirib yubordi. Podshoh hukmronligining so'nggi yillari o'zaro urushlar va boshboshdoqliklar bilan o'tdi. Natijada xonlik taxti uning o'g'li Ubaydullaxonga o'tadi. Urug' va qabila boshliqlari otaliq boshchiligida ba'zan xonlardan siyosiy maqsadlarda foydalanishgan. Masalan, Nodir Muhammad o'z o'rnini vorisiga bergan bo'lsa, Subhonqulixonning Muhammad Muqim sultonni taxt vorisi etib belgilash istagi amalga ham oshmagan; Xonning xohishiga qarshi Ubaydulla Sulton (1702-1711)ni xonlik taxtiga o'tqazishgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hukmdorning o'zaro kurashlarga chek qo'yish uchun qilgan harakatlari oson kechmadi, sababi unga ko'plab qarshiliklar bo'ldi. Kelishmovchiliklar natijasida Balx hokimi Muhammad Muqimxon o'zini Buxorodan mustaqil deb e'lon qiladi. Yirik amirlar va mansabdorlarning, hokimlarning mavqei oshib borish jarayoni tezlashib boraverdi. "Ubaydullanoma"da otaliq lavozimining obro'si oshib borganligi ta'kidlanadi. Vaholanki, hukmdorning o'zi 1707-yilda Odilbiy mingni Balx viloyati mulklarining boshlig'i etib tayinlaydi. Ubaydullaxon davrida pul islohoti o'tkazilib, 1708 yilda mamlakatda yangi tangalar muomalaga chiqarila boshlandi. Lekin bu ham xalqning noroziligiga sabab bo'lgan, chunki tangalar tarkibidagi kumushning miqdori barobar kamaytirilib, miqdori avvalgi tangalarga tenglashtirilgan. Ammo mahsulot sotib olish jarayonida ularning qiymati avvalgisiga barobar qilib qo'yilishi xalqning noroziligini keltirib chiqardi. Ubaydullaxon o'tkazgan pul islohotidan norozi bo'lgan aholi vakillari qo'zg'olon ko'tarishadi. Natijada hukmdor boshqaruviga putur etadi, ammo 1709-yilda ko'tarilgan va Movarounnahrning ko'plab shaharlari bo'ylab tarqalgan qo'zg'olon Ubaydullaxonning toju taxti xavf ostida qolganligini ko'rsatar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зияев А. Х. «Силсилат ас-салотин» как исторический источник./Автореферат. – Ташкент: 1990. -Б.
2. 2. История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С.
3. 3. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000,- Б.266



4. 4. Urunov, Shoxijahon. "SOHIBQIRON AMIR TEMURNING YOSHLIK YILLARI." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 1.4 (2022): 100-104.
5. 5. Shoxijahon, Urunov. "SOHIBQIRON AMIR TEMUR MUNOSIB TAXT VORISI TOPISH ILINJISIDA." Yosh Tadqiqotchi Jurnal 2.1 (2023): 51-53.
6. 6. Jamshidovich, U. S. (2023). YOUTH YEARS OF THE GREAT AMIR TEMUR. Research Focus, 2(2), 78-80.
7. 7. Jamshidovich, Urunov Shoxijahon. "TARIXNAVIS VA ADIB IBN ARABSHOHNING HAYOT YO 'LLARI." IQRO JURNALI 2.1 (2023): 22-23.
8. 8. Shokhijakhon, Urunov. "THE END AND CONSEQUENCES OF THE PELOPONNESIAN WARS." Yangi O 'zbekiston ustozlari 1.6 (2023): 50-51.
9. 9. Урунов, Шохижохон Джамшидович. "САМЫЙ КРАСИВЫЙ ДВОРЕЦ БУХАРЫ." Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali 5.Special issue (2023).
10. 1. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Nakshbandi as the great sufi scholar. / International scientific and practical conference "Innovative Development in the global science". Boston (USA), 2022 – P. 18-22.
11. <https://zenodo.org/record/7419258#.ZDRLUXZByM8>
12. 2.Rajabov Alisher Shavkatovich. Study of the manuscript of the work "Mirotus Solikiyn". / International scientific conference "The role of science and innovation in the modern world". London (United Kingdom), 2022. – P. 122-128.
13. <https://zenodo.org/record/7472104#.ZDRMeHZByM8>
14. 3.Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg'ona,2023. – B. 16-19.
15. 4. Rajabov Alisher Shavkatovich. The work of "Mir'otus Solikiyn" as a Theoretical Source of Naqshbandiya Tariqat. / Web of scholars: Multidimensional research journal. 1(8). 2022. – P. 18-21.
16. <https://www.innoscience.org/wos/article/view/567>
17. 5. Rajabov Alisher Shavkatovich. About Bahouddin Naqshband in Mirbobo Naqshbandi's Poetry. / International journal of formal education. 2022. – P. 1-5.
18. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/455>
19. 6. Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences Volume: 01 Issue: 01 | 2021 ISSN: 2181-2594
20. 2021-yil,20-noyabr.–B.97-102
<http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/download/274/266>
21. 7. Rajabov Alisher Shavkatovich, Elibayeva Feruza Xamzayevna. O'tkir qilich va qalam sohibi : Bobur merosi jahon olimlari nigohida. / Research and education 2022/2/25. – P. 647



22. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/03/Navoi-and-Babur-conference.pdf#page=647>
23. 8. Alisher Shavkatovich Rajabov. Mirbobo Naqshbandi on the truth of the soul. / Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. 2022 Prague, Czech: 1 (7), 93-101
24. <https://zenodo.org/record/7467785#.ZDRR-XZByM8>
25. 9. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mir Babo Naqshbandi on the Heart of Arif and the Truth of Arif's Condition. / American Journal of Social and Humanitarian Research Vol:3 (12)2022, 50-54
26. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1780/1629>
27. 10. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy orif qalbi va orif holining haqiqati to'g'risida. / Ilm sarchashmalari. 1-son. Urganch, 2023. B 62-65.
28. 11. A.Sh.Rajabov. "Mirotus solikyn" ("Tariqat soliklarining oynasi") asari – Naqshbandshunoslikda muhim manba. / Tarixiy xotira – o'zlikni anglash va milliy-ma'naviy taraqqiyot omili. 2022. B. 70-73.
29. 12. A.Sh.Rajabov. Mir bobo Naqshbandiyning «Mir'otus Solikiyn» asarida qalbning tavsifi. / BuxDPI Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari. Buxoro, 2022-yil, 25-aprel. – B. 707-771.
30. 13. Alisher Rajabov. Mirbobo Naqshbandiy qalbi zikri va uning turlari to'g'risida. / Ilm-fan muommalati yosh tadqiqotchilar talqinida Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. 3-son. 2022-yil, 25-dekabr. – B. 130-137.
31. 14. Sohibqiron Amir Temur davrida madaniyat va ilmiy bilimlarning rivojlanishi (aniq va tabiiy fanlar misolida) va taraqqiyot bosqichlari. International Scientific and Practical Conference Innovative development in the global science vol-2ISSUE-3 2023 Boston USA. 30.03.2023. B.53-59
32. <https://academicsresearch.com/index.php/iditys>
33. 15. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi (Hindiston asari) xotiralari xususida ayrim chizgilar. International Scientific and Practical Conference "The role of science and innovation in the modern world". London, United Kingdom. 30.03.2023. B.35-44.
34. <https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1449>

